



# TOSHKENT VILOYATI CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
*2023- yil mart*



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **10854** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **182** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **10672** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **5232,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mart oyiga nisbatan **106,6** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **837,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,8%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3882,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,7** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **513,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,2** %) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>5232,8</b>	<b>106,6</b>	<b>837,2</b>	<b>104,8</b>	<b>3882,0</b>	<b>107,7</b>
Nurafshon shahar	118,3	101,9	34,0	45,4	81,2	205,1
Olmaliq shahar	446,3	103,4	71,7	163,1	340,0	95,6
Angren shahar	361,6	102,8	79,1	83,7	276,6	118,6
Bekobod shahar	278,6	103,6	38,8	95,3	195,7	104,8
Ohangaron shahar	112,2	102,4	2,7	103,2	103,7	104,5
Chirchiq shahar	271,9	103,6	77,0	165,3	181,2	92,8
Yangiyo'l shahar	329,0	103,4	29,0	154,6	231,5	118,1
Oqqo'rg'on t	196,2	101,1	3,7	90,2	166,1	93,7
Ohangaron t	57,1	109,4	11,6	2097,4	45,5	88,1
Bekobod t	122,7	103,9	14,4	145,1	95,9	113,3
Bo'stonliq t	370,5	107,8	79,6	69,7	226,2	136,2
Bo'ka t	193,7	103,8	13,4	52,1	133,6	102,5
Quyichirchiq t	89,1	111,7	4,1	89,0	59,3	103,3
Zangiota t	814,9	111,5	98,9	173,0	694,2	105,6
Yuqorichirchiq t	137,2	103,8	25,5	146,2	106,1	95,0
Qibray t	329,5	110,6	81,2	137,9	215,3	103,7
Parkent t	199,9	112,1	11,9	194,0	157,6	106,2
Piskent t	143,4	108,1	28,9	223,4	86,5	96,8
O'rtachirchiq t	82,1	107,4	2,0	12,0	80,1	134,7
Chinoz t	141,0	119,5	24,0	224,7	81,3	91,0
Yangiy'ol t	183,0	101,3	16,5	80,1	166,4	104,1
Toshkent t	254,6	110,3	88,7	76,3	158,0	146,4




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3882,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning mart oyiga nisbatan **107,7** % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **26,9** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning mart oyiga nisbatan **104,8** % ga o'sdi va **837,2** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **16,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar     
 ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha O'rtachirchiq (**59,9 %**), Zangiota (**54,6 %**) va Ohangaron shahar (**46,7 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **16,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent tumani (**34,9 %**), Nurafshon shahar (**28,7 %**), Angren shahar (**21,9 %**), Chirchiq shahar (**28,3 %**) hududlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1744,1</b>	<b>104,7</b>
Nurafshon sh	2178,6	99,2
Olmaliq sh	3136,5	98,5
Angren	2019,2	100,4
Bekobod	2723,4	101,4
Ohangaron sh	2749,2	100,9
Chirchiq	1613,5	101,6
Yangiyo'l	4002,5	100,8
Oqqo'rg'on t	1775,5	99,3
Ohangaron t	521,7	107,3
Bekobod t	750,7	102,1
Bo'stonliq t	2111,2	106,3
Bo'ka t	1457,5	101,9
Quyichirchiq t	778,7	109,5
Zangiota t	4862,5	111,7
Yuqori Chirchiq t	996,8	101,8
Qibray t	1902,3	110,4
Parkent t	1139,6	110,2
Piskent t	1407,7	110,0
O'rta Chirchiq	608,0	106,0
Chinoz t	985,8	116,7
Yangiyo'l t	926,9	98,8
Toshkent t	1316,4	107,4

2023- yilning mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1744,1** ming. so'mni (2022- yilning mart oyiga nisbatan **104,7** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Zangiota tumani (**4862,5** ming. so'm), Yangiyo'l shahari (**4002,5** ming. so'm) va Olmaliq shahar (**3136,5** ming. so'm) hududlari hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>513,6</b>	<b>101,2</b>	<b>175,9</b>	<b>87,7</b>	<b>337,7</b>	<b>110,0</b>
Nurafshon sh	3,1	183,8	3,1	183,8	0,0	0
Olmaliq sh	34,6	108,5	15,6	134,2	19,0	93,7
Angren	5,9	24,8	5,9	24,8	0,0	0
Bekobod	44,0	106,0	44,0	106,0	0,0	0
Ohangaron sh	5,7	74,6	5,7	74,6	0,0	0
Chirchiq	13,6	149,2	13,6	149,2	0,0	0
Yangiyo'l	68,6	57,0	19,4	35,6	49,2	74,7
Oqqo'rg'on t	26,5	110,0	3,0	33,5	23,5	155,6
Ohangaron t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Bekobod t	12,4	52,5	0,0	0	12,4	52,5
Bo'stonliq t	64,7	102,2	2,1	80,3	62,6	103,2
Bo'ka t	46,7	241,2	17,9	349,6	28,8	202,4
Quyi Chirchiq t	25,6	144,9	3,0	104,2	22,6	152,7
Zangiota t	21,9	136,4	2,0	396,4	19,9	127,8
Yuqori Chirchiq t	5,5	191,8	5,5	191,8	0,0	0
Qibray t	33,0	105,3	0,0	0	33,0	105,3
Parkent t	30,4	166,7	10,5	125,4	19,9	201,4
Piskent t	28,0	92,2	1,1	15,3	26,9	115,8
O'rta Chirchiq t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Chinoz t	35,6	199,0	20,7	217,5	14,9	178,0
Yangiyo'l t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Toshkent t	7,8	118,0	2,8	106,6	5,0	125,7







\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning mart oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **337,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **220,9** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **56,3** mlrd. so‘mni, otlar – **59,1** mlrd. so‘mni, parrandalar – **1,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	128,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	56,1
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	36,7
	Qo‘ylar	53,9
	Otlar	59,1
	Echkilar	2,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,2
	Tovuqlar	0,2
	Quyionlar	0,
	Qushlar	0,0

2023-yilning mart oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **175,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**93,8** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>93,9</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>16,9</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>22,8</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>8,3</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>9,7</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>6,3</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>4,8</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>0,0</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>5,7</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>5,8</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>1,6</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>10,0</b>

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **3545** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **14** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3531** tani tashkil qildi.

2023- yilning mart oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi **4,7 %** ni tashkil etib, **236,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **62,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>236,6</b>	<b>100,2</b>	<b>52,5</b>	<b>89,4</b>	<b>147,2</b>	<b>103,7</b>
Nurafshon sh	7,9	103,3	0,0	0,0	7,2	103,3
Olmalik sh	41,5	103,2	29,3	102,9	9,5	103,6
Angren	22,5	106,4	5,4	117,3	15,1	103,3
Bekobod	7,7	104,3	0,0	0,0	5,3	104,0
Ohangaron sh	11,5	91,6	7,0	85,2	3,9	103,4
Chirchiq	32,4	84,1	7,1	50,1	22,3	103,9
Yangiyo'l	8,3	103,9	0,0	0,0	6,3	103,8
Oqqo'rg'on t	3,0	157,3	0,0	0,0	1,6	261,9
Ohangaron t	2,1	103,5	0,0	0,0	1,4	103,1
Bekobod t	4,7	103,8	0,0	0,0	3,4	103,5
Bo'stonliq t	9,9	86,6	0,0	0,0	8,1	103,3
Bo'ka t	3,6	104,0	0,0	0,0	2,4	103,8
Quyichirchiq t	3,2	104,0	0,0	0,0	2,3	103,7
Zangiota t	13,2	104,5	0,1	163,3	7,6	104,1
Yuqori Chirchiq t	8,9	103,8	0,0	0,0	7,8	103,7
Qibray t	19,6	98,7	0,0	0,0	18,1	98,2
Parkent t	5,0	104,2	0,0	0,0	3,5	103,8
Piskent t	2,4	103,7	0,0	0,0	1,6	103,5
O'rta Chirchiq t	6,3	103,7	0,0	0,0	5,5	103,6
Chinoz t	3,0	103,7	0,0	0,0	1,3	103,4
Yangiyo'l t	9,2	137,5	3,6	270,9	4,4	103,7
Toshkent t	10,7	104,2	0,0	0,0	8,5	104,0



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **889,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **41,7 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **369,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **24,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **491,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **83,8 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati eng yuqori hududlar, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>889,4</b>	<b>41,7</b>
Nurafshon sh	242,5	69,4
Olmaliq sh	2,7	105,7
Angren	79,0	60,4
Bekobod	1,6	105,7
Ohangaron sh	1,8	105,7
Chirchiq	34,2	51,6
Yangiyo'l	26,1	105,7
Oqqo'rg'on t	0,6	105,7
Ohangaron t	14,3	105,7
Bekobod t	7,3	105,8
Bo'stonliq t	4,3	105,3
Bo'ka t	0,3	105,7
Quyichirchiq t	15,2	92,6
Zangiota t	120,8	10,8
Yuqori Chirchiq t	38,2	65,0
Qibray t	27,6	40,2
Parkent t	8,5	105,8
Piskent t	0,3	105,7
O'rta Chirchiq t	3,9	105,7
Chinoz t	105,4	68,7
Yangiyo'l t	21,4	105,7
Toshkent t	133,4	151,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nurafshon shahri (**242,5** mlrd. so'm), Toshkent (**133,4** mlrd. so'm) va Zangiota (**120,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2023- yilning mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3343,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **125,1** % ga o‘ydi.



### Savdo aylanmasi ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2104,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,9** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **62,9** % ni tashkil qildi.




# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qibray tumani (**962,6**), Toshkent tumani (**99,9**) va Parkent tumani (**33,6**) hududlarida kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **4362** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4324** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil mart oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3485,7</b>	<b>119,4</b>	<b>1280,6</b>	<b>167,0</b>	<b>2205,1</b>	<b>102,4</b>
Nurafshon sh	80,7	86,5	41,5	61,3	39,2	152,5
Olmaliq sh	89,0	101,5	24,0	125,2	65,0	94,9
Angren	64,2	101,2	11,5	65,0	52,7	115,2
Bekobod	29,8	102,1	0,1	44,3	29,7	102,7
Ohangaron sh	198,8	100,3	34,9	81,0	163,9	105,6
Chirchiq	71,5	100,5	2,1	12,2	69,4	128,5
Yangiyo'l	75,0	102,3	0,0	-	75,0	102,3
Oqqo'rg'on t	1,7	101,5	0,0	-	1,7	102,5
Ohangaron t	42,5	101,3	0,1	22,1	42,4	102,0
Bekobod t	9,5	103,5	2,4	107,1	7,1	102,3
Bo'stonliq t	126,4	101,4	39,4	67,1	87,0	132,0
Bo'ka t	9,8	102,4	0,0	-	9,8	102,4
Quyichirchiq t	35,6	102,4	0,0	-	35,6	102,6
Zangiota t	796,3	100,2	1,8	2,5	794,5	109,7
Yuqori Chirchiq t	82,9	102,4	0,1	16,7	82,8	102,8
Qibray t	1113,5	181,0	962,6	235,7	150,9	72,9
Parkent t	40,9	120,3	33,6	196,0	7,3	43,1
Piskent t	15,3	99,5	0,0	4,9	15,3	102,0
O'rta Chirchiq t	84,3	95,2	26,5	70,2	57,8	113,9
Chinoz t	54,9	101,1	0,1	9,3	54,8	102,3
Yangiyo'l t	54,1	102,5	0,0	-	54,1	102,5
Toshkent t	409,0	118,6	99,9	2207,7	309,1	90,8



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi**